



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisining o'rinbosari
v.b.:
O.Voxidov

«8» sentabr 2026 y.
№ 576

“ORACLE dasturiy ta'minotlarining litsenziyalarini tiklash va texnik qo'llab-quvvatlash muddatlarini 36 oyga uzaytirish” xizmatlarini xarid qilish bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent 2026 y.

MUNDARIJA

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Xarid qilish uchun asos

2. Loyihaning vazifasi va amalga oshirish maqsadlari

2.1. Loyihaning vazifasi

2.2. Loyihani amalga oshirish maqsadlari

3. Axborotlashtirish obyektining xarakteristikalari va xarid predmeti

4. Texnik qo'llab-quvvatlashga qo'yiladigan talablar

4.1. Texnik qo'llab-quvvatlashni taqdim etish tartibi va shartlari

5. Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar tarkibi va mazmuni

6. Ijrochiga qo'yiladigan talablar va kafolat majburiyatlari

7. Natija hujjatlariga qo'yiladigan talablar

Ilova № 1. Spetsifikatsiya: mavjud litsenziyalar va xarid qilinadigan texnik qo'llab-quvvatlash

Shartli belgilar, qisqartmalar va terminlar ro'yxati

ATB	Aksiyadorlik tijorat banki
ABT	Avtomatlashtirilgan bank tizimi (core banking)
DT	Dasturiy ta'minot
TT	Texnik topshiriq
MOS	My Oracle Support – Oracle texnik qo'llab-quvvatlashning elektron tizimi
CSI	Customer Support Identifier – qo'llab-quvvatlash identifikatsion raqami
SR	Service Request – texnik so'rov
SULS	Software Update License & Support – dasturiy ta'minot yangilanishlari litsenziyasi va qo'llab-quvvatlash
O'z DSt	O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti

1. Umumiy ma'lumotlar

Loyihaning to'liq nomi – ORACLE dasturiy ta'minotlarining litsenziyalarini tiklash va texnik qo'llab-quvvatlash muddatlarini 36 oyga uzaytirish.

Buyurtmachi – "Biznesni rivojlantirish banki" ATB.

"Buyurtmachi"ning manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 18A uy; Tel.: (+998 78) 150-93-39.

Ijrochi – ushbu loyiha bo'yicha ijrochi tender tanlovi natijalari asosida belgilanadi. Ijrochi Oracle kompaniyasining amaldagi hamkori bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi hududida sertifikatlangan Oracle texnik ko'magini ko'rsatish tajribasiga ega bo'lishi lozim (7-bo'limga qarang).

1.1. Xarid qilish uchun asos

Quyidagilar xarid qilish uchun asos hisoblanadi:

- 2025-yil 28-noyabrdagi 41-sonli "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kuzatuv kengashi bayonnomasi.
- 2026-yil 3-sentabrdagi Axborot texnologiyalari departamenti direktori Z.Orifkhojayevning bildirishnomasi.

Eslatma (huquqiy vorislik): ushbu texnik qo'llab-quvvatlash qamrab oladigan Oracle litsenziyalari dastlab "Qishloq qurilish banki" ATB nomiga rasmiylashtirilgan (Oracle sertifikat, buyurtma № OR_58_20_AZ-SW, 28.09.2022 y., CSI 25937301). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi qaroriga muvofiq "Biznesni rivojlantirish banki" ATB mazkur bank negizida tashkil etilgan va uning huquqiy vorisi hisoblanadi.

Ishlarni boshlash va yakunlashning rejali muddatlari.

Texnik qo'llab-quvvatlashni faollashtirish (tiklash va uzaytirish) ishlari Ijrochi tomonidan Buyurtmachi oldindan to'lovni amalga oshirgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida bajarilishi lozim.

Texnik qo'llab-quvvatlash davrlari Oracle Software Technical Support Policies qoidalariga muvofiq quyidagicha belgilanadi:

- tiklash davri (Reinstatement) – oldingi texnik qo'llab-quvvatlash davri tugagan sanadan keyingi kundan (2025-yil 28-sentyabr) texnik qo'llab-quvvatlash Oracle da tiklangan (buyurtma rasmiylashtirilgan) sanagacha;
- yangi texnik qo'llab-quvvatlash davri – tiklash sanasidan boshlab uzluksiz 36 (o'ttiz olti) oy.

Spetsifikatsiyada (1-ilova) ko'rsatilgan sanalar (tiklash: 28.09.2025 - 29.09.2026; yangi davr: 30.09.2026 - 29.09.2029) mo'ljallangan sanalar bo'lib, 2026-yil sentyabr oyida buyurtma rasmiylashtirilishidan kelib chiqib hisoblangan. Buyurtma rasmiylashtirish sanasi o'zgarganda, tiklash davrining tugash sanasi va yangi davrning boshlanish/tugash sanalari mos ravishda siljiydi; bunda 36 oylik umumiy muddat va Spetsifikatsiyadagi mahsulotlar tarkibi hamda miqdori o'zgarmaydi. Yakuniy sanalar Oracle ning rasmiy tasdiqlovchi hujjatida (sertifikatida) qayd etiladi.

Moliyalashtirish manbalari.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning o'z mablag'lari loyihani moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Ish natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi.

Xizmatlar natijasi 6-bo'limda belgilangan tartibda bajarilgan xizmatlar Dalolatnomasini imzolash orqali qabul qilinadi; Buyurtmachi zarur bo'lganda, belgilangan tartibda Qabul qilish komissiyasini tashkil qilish huquqiga ega. Dalolatnoma imzolangan sana xizmatlarni topshirish-qabul qilish sanasi hisoblanadi.

2. Loyihaning vazifasi va amalga oshirish maqsadlari

2.1. Loyihaning vazifasi

Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT) negizida ishlaydigan Oracle Database dasturiy ta'minotlarining uzluksiz texnik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash loyihaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

2.2. Loyihani amalga oshirish maqsadlari

Ushbu loyihani amalga oshirishning asosiy maqsadlari:

- Oracle Database va opsiyalari dasturiy ta'minotining texnik ko'magini tiklash va yangi 36 (o'ttiz olti) oylik davrni ta'minlash;
- My Oracle Support (MOS) tizimi orqali yangilanishlar, tuzatuvchi paketlar (patch) va konsultatsiyalarga uzluksiz kirishni ta'minlash;
- bank tizimi dasturiy ta'minotidan foydalanish bo'yicha, dasturiy muhitni hisobga olgan holda, operativ konsultatsiya yordamini ta'minlash.

3. Axborotlashtirish obyektining xarakteristikalarini va xarid predmeti

Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi Oracle Database Enterprise Edition (8 protsessor litsenziyasi) va uning opsiyalari – Oracle Partitioning, Oracle Diagnostics Pack, Oracle Tuning Pack (har biri 8 protsessor litsenziyasi) hamda Oracle WebLogic Server Enterprise Edition (2 protsessor litsenziyasi) negizida ishlaydi. Litsenziyalar muddatsiz (Perpetual) bo'lib, Oracle sertifikatini (buyurtma № OR_58_20_AZ-SW, 28.09.2022 y.) asosida CSI 25937301 ostida ro'yxatga olingan. Ushbu dasturiy ta'minotning texnik ko'magi 2025-yil 27-sentyabrda tugagan.

Xarid predmeti: faqat mavjud litsenziyalar uchun «Software Update License & Support» (SULS) turidagi texnik ko'mak xizmatlarini tiklash va uzaytirish. Yangi litsenziyalar xarid qilinmaydi; litsenziyalar tarkibi, metrikasi va miqdori o'zgarmaydi. Texnik ko'mak Oracle tomonidan Buyurtmachining mavjud CSI 25937301 raqami ostida ro'yxatga olinishi shart; yangi CSI ochilmaydi. Dasturiy ta'minotning to'liq tarkibi va texnik ko'mak davrlari Spetsifikatsiyada (1-ilova) keltirilgan.

Xizmatlar ko'rsatish joyi: xizmatlar masofadan, Oracle ning elektron resurslari (My Oracle Support) orqali ko'rsatiladi; Buyurtmachining manzili – Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 18A uy.

4. Texnik qo'llab-quvvatlashga qo'yiladigan talablar

Xizmatlar Oracle kompaniyasi tomonidan ko'zda tutilgan «Oracle Premier Support» darajasidagi xizmatlar hajmida taqdim etilishi va shu turdagi xizmatlarga nisbatan Oracle ning amaldagi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

- Muddat – 1-bo'limda belgilangan tartibda: tiklash davri va undan keyin uzluksiz 36 (o'ttiz olti) kalendar oy (1-ilovaga qarang); texnik ko'mak darajasi – Oracle Premier Support, mavjud CSI 25937301 ostida;
- barcha 36 oy uchun texnik ko'mak Oracle da yagona buyurtma sifatida rasmiylashtiriladi va Oracle ning tasdiqlovchi hujjatida to'liq muddat aks etadi;
- Buyurtmachi xodimlarining muammolar va intsidentlar bo'yicha konsultatsiya va texnik yordam olish uchun 24/7/365 rejimida My Oracle Support orqali (SR) hamda Oracle Texnik ko'mak markazining telefon liniyasi orqali murojaat qilish imkoniyati;
- O'zbekiston Respublikasi hududida Ijrochi tomonidan birinchi liniya (1st line) texnik ko'magi: rus (ustuvor) va ingliz tillarida, ish kunlari va soatlarida telefon va elektron pochta orqali, Oracle ga SR yaratishda va eskalatsiyada yordam;
- dasturiy ta'minotdagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha yordam (DT Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilmagan va kelishilgan dasturiy-apparat platformasida ishlatilgan taqdirda);
- texnik ko'mak amal qilish muddati davomida dasturiy ta'minotning bepul yangilanishlarini (Oracle tomonidan chiqarilgan taqdirda) o'z vaqtida taqdim etish;
- Buyurtmachiga identifikatsion raqam (CSI) berilgan holda My Oracle Support (<https://support.oracle.com>) elektron tizimiga 24/7 rejimida avtorizatsiyalangan kirish va texnik so'rovlarni (SR) yaratish imkoniyati.

My Oracle Support xizmatiga kirish Buyurtmachiga axborot olish uchun taqdim etiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Patch, Update, Upgrade yuklab olish imkoniyati;
- mahsulotlarning so'ngi versiyalari haqidagi axborotga kirish;
- Oracle mahsulotlari bo'yicha texnik byulletenlar (xatolarning tavsifi, simptomlari, diagnostika va bartaraf etish usullari);
- tez-tez uchraydigan savol va muammolar yechimlari bo'yicha maqolalar;
- End-of-support Notes – mahsulotlarni qo'llab-quvvatlashdan chiqarish to'g'risidagi xabarnomalar;
- Oracle DT bo'yicha texnik forumlarda ishtirok etish imkoniyati;
- Certification Matrix – Oracle DT / platformalarning turli versiyalari mosligi (sertifikatsiyasi) to'g'risidagi axborot.

4.1. Texnik qo'llab-quvvatlashni taqdim etish tartibi va shartlari

Xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat – Oracle kompaniyasi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqlovchi hujjat (Oracle Support Renewal Confirmation / texnik qo'llab-quvvatlash sertifikat), unda Buyurtmachining nomi, CSI 25937301, Spetsifikatsiyaga (1-ilova) muvofiq, mahsulotlar tarkibi va miqdori hamda tiklash davri va 36 oylik texnik qo'llab-quvvatlashning

to'liq muddati ko'rsatilgan bo'lishi shart. Ijrochining o'z nomidan bergan xati yoki ma'lumotnomasi bunday hujjat o'rnini bosa olmaydi. Mazkur hujjat unda ko'rsatilgan muddat davomida Buyurtmachining texnik ko'makdan foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

Ijrochi Buyurtmachi oldindan to'lovni amalga oshirgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida Oracle DT texnik qo'llab-quvvatlash faollashtirilgani (uzaytirilgani) to'g'risida yozma xabar beradi hamda uch kunlik muddatda elektron shaklda hisobvaraqq-faktura va bajarilgan xizmatlar Dalolatnomasini taqdim etadi.

Buyurtmachi Ijrochidan yozma xabarnoma olganidan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida o'z CSI raqami bo'yicha support.oracle.com saytida texnik qo'llab-quvvatlashga kirishni tekshiradi va texnik qo'llab-quvvatlash 1-ilovadagi tarkib va miqdorda hamda to'liq 36 oylik muddatga uzaytirilgani faktini aniqlab, xizmatni akseptlaydi.

5. Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar tarkibi va mazmuni

Mazkur TT talablarini amalga oshirish bir nechta bosqichda bajariladi. Bosqichlar bo'yicha ishlar tarkibi va mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan. Alohida bosqichlar mazmuni va ularni yakunlash muddatlariga loyihani amalga oshirish jarayonida aniqlik kiritilishi mumkin.

6. Ijrochiga qo'yiladigan talablar va kafolat majburiyatlari

Ijrochi ko'rsatilgan xizmatlar va ularning natijasi yuqori sifatli bo'lishini hamda O'zbekiston Respublikasida amaldagi normalar va standartlarga muvofiqligini ta'minlashi lozim.

- Oracle DT texnik ko'magi «Oracle's Lifetime Support Policy» qoidalariga qat'iy muvofiq bo'lishi va uzluksiz xarakterda ko'rsatilishi lozim;
- Ijrochi Buyurtmachining CSI 25937301 bo'yicha My Oracle Support tizimiga kirish huquqi butun 36 (o'ttiz olti) oylik muddat davomida uzluksiz amal qilishini kafolatlashi shart;
- texnik ko'mak doirasida olinadigan yangilanishlar va tuzatuvchi paketlar litsenziyaviy jihatdan toza bo'lishi, destruktiv, josuslik yoki kuzatuvchi kodni o'z ichiga olmasligi lozim (Oracle ning rasmiy resurslaridan olinadi);
- 36 oy davomida xizmatlar natijasida kamchilik aniqlansa, Ijrochi Buyurtmachining xabarnomasidan so'ng 2 (ikki) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda kamchilikni bartaraf etishi shart; kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha barcha xarajatlarni Ijrochi zimmasiga oladi;
- Ijrochi uchinchi shaxslarning qonuniy huquqlarini va amaldagi qonunchilik talablarini buzmasligini kafolatlaydi hamda intellektual mulk huquqlariga oid da'volardan Buyurtmachini o'z hisobidan himoya qilish va yetkazilgan zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

Ijrochi Oracle kompaniyasining amaldagi hamkori bo'lishi va Buyurtmachiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

- Oracle kompaniyasining vakolatli vakolatxonasidan hamkorlik maqomi to'g'risidagi tasdiqnoma-xat;

- O'zbekiston Respublikasi hududida xarid qilinayotgan xizmatlarni ko'rsatish va DT texnik ko'magiga kirish huquqini berish vakolati hamda tegishli tajribasi to'g'risidagi tasdiqnoma-xat;
- Oracle kompaniyasi oldida qarzдорligi yo'qligi to'g'risidagi tasdiqnoma.

Shuningdek, Ijrochi quyidagi mezonlarga javob berishi lozim: shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy va kadrlar resurslarining mavjudligi; shartnoma tuzishga vakolatligi; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzдорlik yo'qligi; bankrotlik protseduralari kiritilmaganligi; Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda yozuv yo'qligi.

Maxsus majburiy talablar

Xarid ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar	Talabga muvofiqlikni tasdiqlovchi, ariza tarkibida taqdim etiladigan hujjat
Oracle avtorizatsiya formasi / Manufacturer's Authorization Form (MAF) mavjudligi	Asl nusxa (Oracle kompaniyasidan xat blanki)

Xizmatlar ko'rsatishda javobgarlikni taqsimlash matritsasi

№	Harakat	Ijrochi	Buyurtmachi
1.	Taklif taqdim etish	O	U
2.	Mavjud litsenziyalar va CSI to'g'risidagi ma'lumotlarni (Oracle sertifikat) taqdim etish	I	O
3.	Oracle DT texnik ko'magini mavjud CSI ostida faollashtirish (tiklash va uzaytirish), Buyurtmachining My Oracle Support kabinetida yozuv bilan	O	U
4.	Yakuniy qabul qilish (Dalolatnomani imzolash)	I	O

Javobgarlik matritsasining shartli belgilari:

«O» - Ma'sul	Qo'yilgan vazifani bajarish uchun javobgar. Har bir vazifaga kamida bitta Ijrochi to'g'ri kelishi lozim.
«U» - Tasdiqlovchi	Olingan natija bo'yicha unga hisobot beriladi; takliflarni qabul qilish yoki rad etish vakolatiga ega. Har bir loyihaga bittadan ortiq bo'lmagan Tasdiqlovchi ajratiladi.
«I» - Xabardor qilinuvchi	Bajarilgan ish to'g'risida yakuniy axborot oladi. Bir tomonlama aloqa bilan tavsiflanadi.

7. Natija hujjatlariga qo'yiladigan talablar

Xizmatlar natijasi bo'yicha Ijrochi Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Oracle kompaniyasining rasmiy tasdiqlovchi hujjati (Support Renewal Confirmation / sertifikat) – elektron shaklda, 4.1-bandda ko'rsatilgan rekvizitlar bilan;
- texnik ko'mak faollashtirilgani (tiklangani va uzaytirilgani) to'g'risidagi yozma xabarnoma;
- hisobvara-faktura va bajarilgan xizmatlar Dalolatnomasi (elektron, so'ngra qog'oz shaklda, ikki nusxada).

Buyurtmachi Ijrochiga xizmatlarni rasmiylashtirish uchun zarur ma'lumotlarni – mavjud Oracle sertifikat nusxasi, CSI raqami va My Oracle Support kabinetidagi mas'ul foydalanuvchi ma'lumotlarini taqdim etadi. Masofaviy kirish bo'yicha har bir Tomon o'z tomonidagi sozlamalar va kanalning ishlashi uchun mustaqil javob beradi.

Spetsifikatsiya

1-jadval. Buyurtmachida mavjud Oracle litsenziyalari (xarid predmeti emas)

Asos: Oracle «Value Licenses» sertifikat, buyurtma № OR_58_20_AZ-SW, 28.09.2022 y., CSI 25937301. Litsenziyalar Buyurtmachining mulki bo'lib, ularning tarkibi, metrikasi va miqdori ushbu xarid doirasida o'zgarmaydi.

№	Mahsulot nomi	Litsenziya metrikasi	Soni	Litsenziya turi	Oxirgi texnik qo'llab-quvvatlash davri
1.	Oracle Database Enterprise Edition	Processor	8	Perpetual (muddatsiz)	28.09.2022 – 27.09.2025
2.	Oracle Partitioning	Processor	8	Perpetual (muddatsiz)	28.09.2022 – 27.09.2025
3.	Oracle Diagnostics Pack	Processor	8	Perpetual (muddatsiz)	28.09.2022 – 27.09.2025
4.	Oracle Tuning Pack	Processor	8	Perpetual (muddatsiz)	28.09.2022 – 27.09.2025
5.	Oracle WebLogic Server Enterprise Edition	Processor	2	Perpetual (muddatsiz)	28.09.2022 – 27.09.2025

2-jadval. Xarid qilinadigan xizmatlar – 1-jadvaldagi litsenziyalar uchun texnik qo'llab-quvvatlash (Software Update License & Support – Renewal Partner)

Tiklash davri (1–5-qatorlar) va uzluksiz 36 oylik texnik ko'mak (6–20-qatorlar, uchta yillik davr). Barcha qatorlar mavjud CSI 25937301 ostida rasmiylashtiriladi. Sanalar mo'ljallangan bo'lib, 1-bo'limga muvofiq buyurtma rasmiylashtirilgan sanaga qarab aniqlashtiriladi; tarkib va miqdor o'zgarmaydi.

№	Mahsulot nomi	Soni	CSI
1.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Reinstatement Fee – Oracle Diagnostics Pack – Processor Perpetual	8	25937301
2.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Reinstatement Fee – Oracle Database Enterprise Edition – Processor Perpetual	8	25937301
3.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Reinstatement Fee – Oracle Partitioning – Processor Perpetual	8	25937301
4.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Reinstatement Fee – Oracle WebLogic Server Enterprise Edition – Processor Perpetual	2	25937301
5.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Reinstatement Fee – Oracle Tuning Pack – Processor Perpetual	8	25937301
6.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Diagnostics Pack – Processor Perpetual	8	25937301
7.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Database Enterprise Edition – Processor Perpetual	8	25937301
8.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Partitioning – Processor Perpetual	8	25937301
9.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle WebLogic Server Enterprise Edition – Processor Perpetual	2	25937301
10.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Tuning Pack – Processor Perpetual	8	25937301
11.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Diagnostics Pack – Processor Perpetual	8	25937301
12.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Database Enterprise Edition – Processor Perpetual	8	25937301
13.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Partitioning	8	25937301

№	Mahsulot nomi	Soni	CSI
	– Processor Perpetual		
14.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle WebLogic Server Enterprise Edition – Processor Perpetual	2	25937301
15.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Tuning Pack – Processor Perpetual	8	25937301
16.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Diagnostics Pack – Processor Perpetual	8	25937301
17.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Database Enterprise Edition – Processor Perpetual	8	25937301
18.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Partitioning – Processor Perpetual	8	25937301
19.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle WebLogic Server Enterprise Edition – Processor Perpetual	2	25937301
20.	Software Update License & Support - Renewal Partner - Oracle Tuning Pack – Processor Perpetual	8	25937301

kelishuvchilar: F.Norqulov, S.Kayimov, Z.Orifkhojayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=sR43wV28&id=e56c95c3-1498-4079-9ab2-1a422d556542>